



# MOLIYA VA BANK ISHI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI ILMIY JURNALI



## YASHIL MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY MEXANIZMLAR ROLI

**Aliqulova Nilufar Bahodir qizi**

TDIU, "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedra katta o'qituvchisi, PhD

E-mail: [aliqulova95@gmail.com](mailto:aliqulova95@gmail.com)

ORCID ID:0009-0009-0534-7701

Maqola haqida ma'lumot

Topshirish vaqti:09.11.2025

Qabul qilingan vaqt:12.11.2025

**Kalit so'zlar:** yashil moliya, global yashil moliya indeksi, yashil kredit, yashil qimmatli qog'ozlar, yashil investitsiya, yashil moliyalashtirish mexanizmi, yashil moliya metodologiyasi

Annotatsiya

Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi sharoitida, yashil moliya bozorining tashkiliy rivojlanishi unga yo'naltirilgan kapital oqimini tartibga soluvchi va rag'batlantiruvchi moliyaviy mexanizmlarning funksional samaradorligiga bevosita bog'liq bo'ladi. Global yashil moliyalashtirish jarayonida nafaqat yashil moliyaviy instrumentlar muomalasini oshirish, balki moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlovchi omillarni chuqur o'rganish va qo'llash, global yashil moliya indeks mezonlari va talablariga mos ravishda chora-tadbirlar ko'rilishi ham talab qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish orqali xatarlarni boshqarish mexanizmlarini mustahkamlash va bozor shaffofligini oshirish yashil investitsiyalarga bo'lgan uzoq muddatli institutsional ishonchni kafolatlashning asosiy shartidir. Ushbu maqolada yashil moliya bozorini tashkil etish, uni rivojlantirish, samaradorligini oshirishda bog'liq bo'lgan omillar mexanizmlariga oid ilmiy-nazariy tahlillar keltiriladi.

## THE ROLE OF FINANCIAL MECHANISMS IN DEVELOPING THE GREEN FINANCE MARKET

**Alikulova Nilufar Bahodir kizi**

Independent researcher at Tashkent State University of Economics.

TSUE, "Corporate Finance and Securities" Department, Senior Lecturer, PhD

E-mail: [aliqulova95@gmail.com](mailto:aliqulova95@gmail.com)

ORCID ID:0009-0009-0534-7701

ARTICLE INFO

Received: 09.11.2025

Accepted: 12.11.2025

**Key words:** green finance, global green finance index, green credit, green securities, green investment, green financing mechanism, green finance methodology.

Abstract

In the context of the sustainable development of the global economy, the organizational development of the green finance market is directly linked to the functional effectiveness of financial mechanisms that regulate and stimulate the flow of capital directed toward it. In the global green financing process, it is necessary not only to increase the circulation of green financial instruments, but also to thoroughly study and apply the factors supporting financing, as well as to implement measures in accordance with the criteria and requirements of the Global Green Finance Index. Furthermore, international experience demonstrates that strengthening risk management mechanisms and enhancing market transparency through the introduction of new financial instruments are essential conditions for ensuring long-term institutional confidence in green investments. This article presents scientific and theoretical analyses related to the mechanisms of organizing, developing, and improving the efficiency of the green finance market.

## Kirish

So'nggi yillarda global iqtisodiy taraqqiyotning ekologik barqarorlik tamoyillari bilan uyg'unlashuvi, moliya bozorida yashil instrumentlarga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirib, ularni iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishiga aylantirmoqda. Yashil moliya bozorini rivojlantirishda moliyaviy mexanizmlarning roli, nafaqat kapital oqimlarini ekologik toza loyihalarga yo'naltirishda, balki iqtisodiy o'sishning resurslardan samarali foydalanishga asoslangan yangi modelini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatlar ekologik risklarni kamaytirish, karbon izini qisqartirish va iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha kompleks strategiyalarni ishlab chiqayotgan bir vaqtda, ushbu mexanizmlarning institutsional jihatdan takomillashuvi, moliya bozori infratuzilmasi va investitsion muhitning barqaror rivojlanishiga yanada kuchli turtki bermoqda. Shu nuqtai nazardan, yashil obligatsiyalar, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va sug'urta vositalarini qamrab olgan moliyaviy mexanizmlar tizimi ekologik maqsadlarga erishishning asosiy drayveri sifatida namoyon bo'lib, ularning samarali ishlashi iqtisodiyotning yashil transformatsiyasini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Yashil moliya bozorining kengayishi shuni ko'rsatadiki, moliyaviy mexanizmlar faqatgina investitsion resurslarni taqsimlash vositasi bo'lib qolmay, balki iqtisodiyotning ekologik modernizatsiyasida strategik boshqaruv instrumentiga aylanmoqda. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan joriy etilayotgan ekologik standartlar, reytinglar va verifikatsiya tizimlari yashil loyihalarning shaffofligi hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash jarayonini sezilarli darajada takomillashtirmoqda. Yashil moliyani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fiskal imtiyozlar va normativ-huquqiy rag'batlantirish choralarining kuchayishi esa, xususi sektorning ekologik yo'naltirilgan tashabbuslarini moliyaviy jihatdan yanada jozibador qilish orqali bozor mexanizmlarining raqobatbardoshligini oshirmoqda. Shu asosda shakllanayotgan innovatsion moliyaviy texnologiyalar, xususan, yashil fintex yechimlari va raqamli kuzatuv platformalari, kapitallarning ekologik maqsadlar sari oqimini optimallashtirib, bozorning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan yangi institutsional arxitekturaning vujudga kelishiga zamin yaratmoqda.

Mamlakatimizda ham olib borilayotgan islohotlarda ham ko'rishimiz mumkinki, yashil iqtisodiyotga o'tish, yashil moliya bozorini rivojlantirish kabi global sa'i-harakatlarni qo'llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida ham "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish maxsus jamg'armasini tashkil etish va jamg'armaga moliyaviy mablag'larni jalb qilish" bo'yicha vazifa asosiy maqsadlar ichidan o'rin olgan. Ushbu maqsadni amalga oshirish orqali mamlakat moliya bozoriga xorijiy va mahalliy investorlar kapitalini jalb

qilish, raqobatbardosh loyihalarni moliyalashtirish, samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish hamda atrof-muhitga ijobiy ta'sirini qo'llab-quvvatlashga erishilish shu va boshqa qonun hujjatlari orqali amalga oshirilishi davom etmoqda. Qonun hujjatlari orqali qo'llab-quvvatlanishi mamlakat moliya bozorida ishtirokchilarning harakatlari erkinligi, qonuniyligini ta'minlovchi imkoniyat sifatida ko'rishimiz mumkin.

## Adabiyotlar sharhi

Xorijiy olimlar tomonidan ham yashil iqtisodiyot, yashil moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojning ortishi va uni takomillashtirish yo'lidagi sa'i-harakatlar talab yuqoriligi sabab bu tushunchalar bo'yicha o'z ilmiy-tadqiqot ishlarida izlanishlar olib borishda davom etmoqdalar. Bir qator xorijiy olimlarning xulosalariga ko'ra, yashil moliya — atrof-muhitni muhofaza qilishni iqtisodiy foyda bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan yangi moliyaviy model bo'lib, "yashil" va "moliya" tushunchalariga tayangan holda shakllanadi hamda ushbu ikki yo'nalish ko'pincha bahsli masalalar sifatida qaraladi. O'z ilmiy-tadqiqotlari davomida qayta tiklanuvchi energiya sohasida yashil moliyaning hozirgi holati tahlil, uning ayrim kamchiliklarini aniqlashgan. Tadqiqot ishlarida bozor mexanizmini rivojlantirish va siyosatlarni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Global yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni boshlangan vaqtlardan boshlab yashil moliya tushunchasining mohiyati, ahamiyati, moliya bozoridagi o'rni qay holatda bo'lish ehtimoli prognoz qilingan holda chuqur o'rganib kelinmoqda. Bu izlanishlar natijasida mazkur tushunchaning amaliyotdagi zarurati va qiymati aniq dalillar evaziga isbotlangan holda zaruriy mexanizm va metodologiyalarini qo'llash orqali moliya bozoridagi samaradorlik ko'rsatkichini sezilarli darajada oshirib olish imkoniyati kengroq bo'ladi deb o'ylaymiz.

Yashil moliya bozorini yaratish, uni standartlashtirish, moliyaviy instrumentlar ko'lamini muvofiqlashtirish va rivojlantirishga bo'lgan talablar yuqoriligi iqtisodchi olimlar tomonidan yashil moliya Xitoyning yuqori sifatli rivojlanishini ilgari suruvchi muhim tashabbuslardan biri bo'lib hisoblanilishi e'tirof etilgan. Qolaversa, yashil moliya samaradorligi mikrokorxonalar hamda makroiqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xitoyda moliyaning shakllanishi, uning kelib chiqishi, yuqori darajadagi strategik dizayni va siyosiy-ijtimoiy me'yoriy bazasini o'z ichiga olgan rivojlanish jarayoniga umumiy ta'rif berish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.[3] Global o'tish jarayoni talab qilayotgan har bir harakatlar, ma'lum bir muammoning umumiyliigi, uning yechimi sifatida umumiy yoki tajribada ijobiy natijaga erishilishi orqali qo'llanish ommalashtirish maqsadga tezroq va samaraliroq erishishga sabab bo'ladi. Shu boisdan, olib borilgan tadqiqot ishiga ko'ra yashil moliyaning taraqqiyoti, ta'sirlari va mexanizmlarini o'rganish, standartlashtirish hamda iqtisodiy, ekologik, texnologik va ijtimoiy ta'sirlari hamohangligida tajribaga erishish bu


jarayonni sifatli va samaralo ekanligini namoyish qiladi deb hisoblaymiz.

### Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada yashil moliya, yashil moliyalashtirish amaliyotining mazmun-mohiyati, konseptual ahamiyati va xalqaro moliya bozori amaliyotidagi holati tahlillari bilan qiyoslash, ilmiy umumlashtirish, guruhlashtirish va istiqbolli prognozlash kabi metodlardan foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar

Yashil moliya so'nggi yillarda global moliyaviy tizimning ustuvor yo'nalishiga aylangan bo'lib, uning ekotizimi iqtisodiy faoliyatni ekologik barqarorlik talablariga moslashtirishga qaratilgan institutsional, normativ-huquqiy va moliyaviy mexanizmlar majmuini o'z ichiga oladi. Mazkur ekotizimning shakllanishida moliya bozorining barcha ishtirokchilari — hukumatlar, markaziy banklar, moliya institutlari, investitsion fondlar, reyting agentliklari, mustaqil verifikatorlar va korporativ sektor — o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi, bu esa ekologik samarador loyihalarni aniqlash, moliyalashtirish va monitoring qilishning yaxlit metodologiyasini shakllantirishga imkon yaratadi. Yashil moliyalashtirish mexanizmi esa moliyaviy instrumentlar (yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, barqarorlikka yo'naltirilgan investitsiya fondlari), tartibga solish standartlari, ekologik reytinglar, emissiya mezonlari va axborot oshkoraligini ta'minlovchi platformalardan iborat kompleks tizim bo'lib, ushbu elementlarning uyg'un ishlashi moliyaviy oqimlarni iqlimga mos iqtisodiy faoliyatga samarali yo'naltirishini ta'minlaydi. Mazkur mexanizmning amaliyotga joriy etilishi, bir tomondan, investorlar uchun xavflarni aniq baholash va kapitalning uzoq muddatli barqaror loyihalarga oqimini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotlarda yashil infratuzilma, resurs tejankor texnologiyalar va past uglerodli sanoatni shakllantirish jarayonlarini tezlashtiradi. Shu ma'noda, yashil moliyaning ekotizimi va moliyalashtirish mexanizmlarini ilmiy asoslangan tartibga solish metodologiyasi orqali takomillashtirish davlatlar iqtisodiyotining ekologik barqaror transformatsiyasini ta'minlaydigan strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda.



1-rasm. Global yashil moliya bozori hajmi 2022-2032 yillar (mlrd.dollar)

Yashil moliya mexanizmining o'tkazuvchan bo'g'inlari – mediatorlar sifatida: rag'batlantirish, kommunikatsiya, moliyalashtirish, kapital oqimi, resurs taqsimoti va siyosiy institutlarning qo'llab quvvatlashi kiritiladi.

Yashil moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlovchi omillar murakkab institutsional-iqtisodiy tizimning elementlari bo'lib, ularning har birining samaradorligi boshqa omillarning rivojlanish darajasiga bevosita bog'liqdir. Bu omillarni shartli ravishda uchta asosiy blokka ajratish mumkin:

1. Institutsional asoslar;
2. Bozor rivojlanganligi;
3. Inson kapitali darajasi;
4. Texnologik rivojlanish darajasi.

Institutsional asoslar – ishonch va qoidalarining o'rni yashil moliya bozorining hayotiyli huquqiy va siyosiy barqarorlikka tayanadi. Moliyaviy siyosat va qoidalar hamda nazorat qiluvchi tuzilmani rivojlantirish (masalan, milliy yashil taksonomiya, majburiy hisobot standartlari) – bular tizimning qonuniy poydevori hisoblanadi.


Aynan mana shu omillar siyosiy muhit bilan uyg'unlashgandagina, investorlar uchun "yashil niqob" (greenwashing) xavfini minimallashtirib, uzoq muddatli ishonch shakllanadi. Masalan, aniq qoidalarining mavjudligi investitsiya muhitini qulay qilishga eng katta hissa qo'shadi, chunki investorlar o'z kapitalarining xavfsizligi va maqsadli ishlatilishiga ishonch hosil qiladi. Makroiqtisodiy omillarning barqarorligi esa (masalan, past inflyatsiya, barqaror valyuta kursi) yashil loyihalarning uzoq muddatli pul oqimi va kredit qobiliyati uchun moliyaviy kafolat bo'lib xizmat qiladi.

Bozor rivojlanishi blokida kapitalni jalb qilish mexanizmlari institutsional asos yaratilgandan so'ng, bozorning chuqurligi va likvidligini oshirish zarurati paydo bo'lishi bilan ifodalanadi. Yaxshi rivojlangan kapital bozori – bu moliyaviy vositalar (yashil obligatsiyalar, sukuk, ESG-fondlar) ning muvaffaqiyatli emissiya qilinishi uchun shartdir. Kapital bozori qanchalik rivojlangan bo'lsa, yashil aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish va ularni sotish (likvidligini oshirish) shunchalik oson kechadi.

Turli darajalar va shakllarda institutsional ishtirokni oshirish (banklar, pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari) yashil moliyalashtirish uchun doimiy va katta hajmdagi kapital bazasini yaratadi. Bu yirik investorlar, ayniqsa, nazorat tuzilmasi va qoidalarining aniqligiga juda talabchan bo'ladi.

Inson kapitali va texnologiyalar kabi omillarni umumiy mazmunda samaradorlik katalizatori deb ham atashimiz mumkin. Bu omillar yashil moliya loyihalarining texnik sifati va samaradorligini belgilaydi. Texnologiya va texnologik yutuqlar (masalan, qayta tiklanuvchi energiya yoki aqlli tarmoqlar) yashil loyihalarning rentabelligini (foydaliligini) oshiradi va xatarlarni kamaytiradi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida xatarlarni va loyiha ta'sirini baholash jarayonini tezlashtiradi. Salohiyatni oshirish (yashil moliya, ESG-ekspertiza sohasidagi mutaxassislar) va turli darajalar va shakllarda institutsional ishtirok o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik juda muhim. Nazoratchilar, banklar va kompaniyalarning o'zlarida yetarli bilim va malaka mavjud bo'lgandagina,

murakkab moliyaviy vositalar (masalan, yashil sukuk yoki SLS) muvaffaqiyatli joriy etilishi mumkin.




**2-rasm. Yashil moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlovchi omillar**

Yashil moliyalashtirish tizimining muvaffaqiyatli rivojlanishi huquqiy kafolatlar, kapital bozorining chuqurligi va texnologik salohiyat kabi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan bir qator omillarning integratsiyasi bilan ta'minlanadi. Aynan moliyaviy siyosat va qoidalar va nazorat qiluvchi tuzilmani rivojlantirish kabi institutsional mexanizmlarning mavjudligi, investitsiya muhitini qulay qilish uchun huquqiy asos yaratadi. Bu, yaxshi rivojlangan kapital bozori va moliyaviy vositalarning diversifikatsiyasi orqali makroiqtisodiy omillarning barqarorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, texnologiya va texnologik yutuqlar hamda salohiyatni oshirish kabi omillar yashil loyihalarning ta'sirini aniq o'lchash va xatarlarni samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan operatsion samaradorlikni oshiradi. Bularning barchasi, turli darajalar va shakllarda institutsional ishtirokni oshirish bilan birgalikda, yashil moliya bozorining likvidligini va uzoq muddatli ishonchligini kafolatlaydi.

Umuman olganda yashil moliyalashtirish tizimini mustahkamlashning asosiy kaliti – bu institutsional qoidalar va texnologik taraqqiyotning o'zaro birlashishidir. Qat'iy qoidalar investorlarning ishonchini oshiradi, texnologiyalar esa operatsion xarajatlarni kamaytiradi va xatarlarni samarali boshqarishga imkon beradi. Bu ikki yetakchi omil tizimning uzoq muddatli barqarorligini va xalqaro kapitalni jalb qilish salohiyatini belgilaydi.

Yashil investitsiya asosan xalqaro moliya institutlari tomonidan amalga oshiriladigan ekologik yo'naltirilgan sarmoya oqimini moliyalashtirishga erishiladi. Karbon moliyasini asosiy vosita sifatida e'tirof etilishiga sabab global atrof-muhit zararlanishida yuqori ko'rsatkichni namoyon qilayotgan uglerod intensivligini kamaytirishni tezlashtirish uchun maxsus uglerod birjarlarini tashkil qilish, karbon kreditlari savdosi va emissiya cheklovlarini asosida moliyaviy ayirboshlash amaliyotini tadbiq etish maqsad qilingan. Sanab o'tilgan besh vosita iqtisodiyotda ekologik transformatsiyani moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi fundament asosni tashkil etadi va ularning majmuaviy ishlashi yashil iqtisodiy o'sishga o'tishni tezlashtiradi.



**3-rasm. Yashil moliyalashtirish mexanizmi**

3-rasmda keltirilgan yashil moliyalashtirish mexanizmi yashil moliya tizimini shakllantiruvchi asosiy bo'g'inlarni, ularning o'zaro bog'liqligini, iqtisodiy, institutsional va ekologik natijalarini kompleks yondashuv asosida aks ettiradi. Strukturaviy nuqtayi nazardan mexanizm uchta asosiy daraja orqali izohlanadi:

- yashil moliyaning instrumentlari;
- iqtisodiy va institutsional o'tkazuvchanlik;
- natijaviy indikatorlar.

Umumiy ma'noda yashil moliyaning asosiy instrumentlari sifatida 5 turdagi moliyaviy vositalarni o'z ichiga oladi. Xususan, yashil kreditlar – tijorat banklari tomonidan ekologik samarador loyihalarni moliyalashtirish uchun beriladigan past foizli, uzoq muddatli kredit mahsulotlarini taqdim etish orqali korxonalarni energiya samarador texnologiyalarga o'tishini rag'batlantiradi. Yashil qimmatli qog'ozlar – yashil obligatsiyalar, yashil aksiyalar, barqarorlikka bog'langan obligatsiyalar kabi tijorat instrumentlar kapital bozorida ekologik loyihalarga resurs oqimini oshirishga xizmat qiladi hamda xorijiy va mahalliy investorlar ishtirokini oshiradi. Yashil sug'urta orqali ekologik tavakkalchiliklarni moliyaviy himoya qilish mexanizmi bo'lib, yuqori ekologik xatarli faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun barqarorlik kafolatini yaratadi.

Global yashil moliya indeksining uzoq va qisqa muddatli maqsad hamda vazifalari o'zaro uyg'unlashgan tizimni tashkil etib, moliyaviy sektorning jamiyatga qayta xizmat qilishini ta'minlash bilan birga, iqtisodiy faoliyatning ekologik chegaralarida amalga oshirilishini strategik vazifa sifatida belgilaydi. Indeks doirasida belgilangan yashil moliyalashtirish mezonlari moliya markazlarining taklif doirasi va bozor chuqurligini kengaytirish orqali barqaror moliyaviy instrumentlarning muvozanatli shakllanishiga xizmat qiladi.

Joriy va rivojlanayotgan yashil moliya modellari, ularning hajmlari hamda jigarang (brown) aktivlarni hisobga olish mexanizmlarining aniqlanishi transformatsion jarayonlarni barqaror monitoring qilish uchun metodologik poydevor yaratadi. Shu bilan birga, yig'ilgan ma'lumotlarning muntazam tahlil qilinishi,

manfaatdor tomonlarning doimiy so'rovlari hamda indeksning har olti oyda yangilanib borilishi global moliya markazlari o'rtasidagi musobaqadosh muhitni kuchaytiradi va institutsional shaffoflikni oshiradi. Qisqa muddatli bosqichda eng yaxshi amaliyotlar identifikatsiya qilinib, moliyaviy markazlar o'rtasida almashinuvi ta'minlanishi natijasida global moliya markazlari yashillashib borishi tezlashadi. Yashil moliya faollari jamoalari tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan tashabbuslar imkoniyatlarni oshirishga qaratilgan mahalliy va xalqaro hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirib, barqaror moliyaviy ekotizimni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Natijada indeks natijalarining ommaviy e'lon qilinishi va rag'batlantirilishi nafaqat moliyaviy markazlar uchun benchmarking vositasiga aylanadi, balki davlatlar, investorlar va biznes subyektlari uchun barqaror rivojlanishga oid strategik qarorlar qabul qilishda muhim yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Global yashil moliya indeksining amal qilishi jarayonida shakllanayotgan institutsional muvozanat faqat moliyaviy markazlar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirish bilangina cheklanmay, balki ularning ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni o'z strategik kun tartibiga integratsiya qilishini taqozo etuvchi tizimli bosimni ham yuzaga keltiradi. Bu jarayonda eng yaxshi amaliyotlarning aniqlanishi va ulardan o'zaro foydalanish imkoniyati moliya markazlari uchun o'z infratuzilmalarini modernizatsiya qilish, barqarorlik standartlarini joriy etish va ekologik tavakkalchiliklarni boshqarish metodlarini takomillashtirishga zamin yaratadi. Shuningdek, indeksning muntazam yangilanib borilishi global moliya makonidagi o'zgaruvchan tendensiyalarni real vaqt rejimida aks ettirib, siyosat ishlab chiquvchilar, regulyatorlar va investorlar uchun muhim signal vazifasini bajaradi.

Moliya markazlarining "yashillashuvi" ularning xalqaro investorlarga bo'lgan jozibasini oshiradi, chunki ekologik barqaror investitsiyalar bo'yicha global talab keskin ortib borayotgan bir paytda, indeksda yuqori o'rin egallash kapital oqimlarini jalb etishning strategik omiliga aylanmoqda. Bu esa o'z navbatida, markazlarning real sektor bilan integratsiyalashgan holda energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya, yashil texnologiyalar va past-uglerod infratuzilmalarga yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, manfaatdor tomonlarning muntazam so'rovlari, ekspertlar fikrlari va indikatorlarning kompleks tahlili orqali shakllantiriladigan baholash modeli tizimning manipulyatsiyaga yo'l qo'ymaydigan, ilmiy asoslangan va shaffof mexanizmlar asosida ishlashini ta'minlaydi.

Mahalliy yashil moliya hamjamiyatlarining indeks jarayonlarida faol ishtirok etishi barqaror iqtisodiyotga o'tish bo'yicha joylardagi tashabbuslarni kuchaytirishi bilan birga, xalqaro platformalarga ulanish imkoniyatlarini kengaytiradi, natijada davlatlar o'rtasida tajriba

almashinuvi va qo'shma loyihalarni amalga oshirish uchun yangi institutsional imkoniyatlar paydo bo'ladi. Bunday integratsion jarayonlar faqat moliyaviy oqimlarni optimallashtirishni emas, balki ekologik xavfsizlik, ijtimoiy farovonlik va iqtisodiy diversifikatsiya kabi strategik maqsadlarni ham qo'llab-quvvatlaydi. Indeks natijalarining keng ommaga e'lon qilinishi esa global darajada mas'uliyatli moliyaviy amaliyotlarni ommalashtirish, investorlar xatti-harakatini istiqbolli yashil aktivlarga yo'naltirish hamda milliy iqtisodiyotlarda barqarorlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

### Xulosa va takliflar

Global yashil moliya bozorining jadal sur'atlarda kengayishi ekologik xavfsizlikni ta'minlash va iqtisodiy tizimlarning barqarorligini mustahkamlashda muhim omilga aylanib bormoqda. Yashil moliyalashtirishni jadallashtiruvchi omillar – xalqaro hamkorlikning kuchayishi, ekologik standartlarning qat'iyashtirilishi hamda investorlarda barqaror rivojlanishga bo'lgan talabning ortishi – moliya bozorlarida ushbu yo'nalishning institutsional poydevorini yanada mustahkamlamoqda. Shuningdek, samarali moliyalashtirish mexanizmlarining shakllanishi, xususan, ekologik risklarni hisobga olgan holda diversifikatsiyalangan moliyaviy instrumentlarni qo'llash, kapital oqimlarini "yashil" loyihalarga yo'naltirish samaradorligini sezilarli darajada oshirayotgani kuzatiladi. Global yashil moliya indeksi mamlakatlarning barqaror moliya bo'yicha reytingini belgilab berish orqali ularning siyosiy ishonchliligi va moliyaviy infratuzilmasi rivojlanish darajasini xalqaro miqyosda baholashga imkon yaratadi. Global yashil moliya indeksi mamlakatlarning moliyaviy infratuzilmasi, siyosiy muhit sifati va "yashillik" darajasini baholash orqali xalqaro kapital oqimlarini yanada aniq yo'naltirish imkonini beruvchi muhim analitik vosita sifatida maydonga chiqmoqda. Shunga asoslanib aytish mumkinki, yashil moliya bozorini rivojlantirishda kompleks yondashuv, institutsional islohotlar va moliyaviy instrumentlarning diversifikatsiyasi ekologik barqaror o'sishning uzoq muddatli kafolatini ta'minlaydi. Shu asosda aytish mumkinki, yashil moliya bozorini rivojlantirish ekologik maqsadlar bilan iqtisodiy manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, barqaror o'sish strategiyalarini shakllantirish va global investitsion raqobatbardoshlikni kengaytirishda ustuvor yo'nalish bo'lib qoladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 28.02.2022 yildagi PF-60-sonli Farmoni.

2.Yao Wang, Qiang Zhi. The Role of Green Finance in Environmental Protection: Two Aspects of Market Mechanism and Policies. Energy Procedia. Vol 104. Dec. 2016. – p. 311-316.

3.Jiazhan Gao, Guihong Hua, Baofeng Huo. Green finance and high-quality development in China: Progress,

impacts and mechanisms. // Encyclopedia of Monetary Policy, Financial Markets and Banking. Vol 2. 2025. Pages 549-558.

4.Green Finance Market. Aarti Dhapte. October 2025.

5.S. Bhatnagar, D. Sharma. Evolution of green finance and its enablers: A bibliometric analysis. // Renewable and Sustainable Energy Reviews. Volume 162, July 2022, 112405.

6.Lingjuan Xu, Yijiang Liu, Bingdan Zhang. Study on the impact of green finance on low carbon development of manufacturing industry from the perspective of multidimensional space: evidence from China. February 2023. Environmental Science and Pollution Research 30(17):1-11.

7.The Global Green Finance Index methodology. <https://www.longfinance.net/programmes/financial-centre-futures/global-green-finance-index/ggfi-methodology/>

8.A. Vaxabov, Sh.Xajibakiyev. Yashil iqtisodiyot. // Darslik. - T.: "Zebo Print", 2021.